

Date: 3rd November-2025

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI JINOYATLARNING
JINOYAT-HUQUQIY TAHLILI**

Fatulloev Dilshod Po'lotovich

Abu Rayhon Beruniy universiteti

Huquqshunoslik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrası o'qituvchisi,



Ekologik huquqbuzarlik aybli ekologik qilmish va ekologik jinoyat tariqasida tasniflanadi. Shunday qilib, ekologik-huquqiy javobgarlik, boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda bo'lgani kabi to'rtta yuridik javobgarlik turini o'z ichiga oladi: intizomiy, ma'muriy, fuqaroviy, jinoiy.

Ekologik huquqbuzarliklar obyekti – tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik tartibot va aholining ekologik xavfsizligiga doir ekologik munosabatlar. Ekologik huquqbuzarlik predmeti esa tabiiy muhit yoki uning alohida bir obyekti hamda inson salomatligi bo'lishi mumkin. Bunda inson salomatligiga yetkazilgan zarar atrof-muhit yomonlashuvi orqali yuzaga keladi, ya'ni bilvosita ta'sir etish inobatga olinadi [1]. Ekologik huquqbuzarlarga yuridik javobgarlikni qo'llash uchun to'rt javobgarlik elementi bo'lishi kerak, ya'ni:

1. Ekologik huquqbuzarlik obyekti – kishilarning aybli noqonuniy harakati yoki harakatsizligi tabiiy obyekti, tabiiy resurs, tabiiy kompleks yoki tabiiy-antropogen hududlarning ekologik talablariga qaratilgani.
2. Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – kishilar xatti-harakatlarining noqonuniyligi, ekologik zarar yetkazilgani yoki yetkazish xavfining borligi.
3. Ekologik huquqbuzarlik subyekti – noqonuniy xatti-harakatlarning kim tomonidan sodir etilgani.
4. Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni – noqonuniy xatti-harakat qilgan shaxsning aybi. Ushbu aybning qasddan yoki ehtiyotsizliklar orqali sodir etilishi.

“Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi qonunda ushbu qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, bu qilmish uchun aynan qaysi choralar qo'llanishi belgilanmagan. Shu bois bunday javobgarlik tegishli kodekslar vositasida amalga oshiriladi [2]. Jinoyat koeksining 196-moddasida bir qarashda suvdan foydalanish to'g'risidagi qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilanmagandek ko'rinsa-da, uning 1-qism dispozitsiyasida quyidagicha keltirilgan [3]: “Yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa”. Ko'rib o'tganimizdek, jinoyatning predmetlaridan biri suv yoki suv havzalari bo'lishi mumkin.

Ushbu jinoyatning obyekti tarkibiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlarning bir guruhi suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Obyektiv tomondan jinoyat suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish og'ir oqibatlariga sabab bo'lishida ifodalanadi. Jinoyat umumiy foydalanishdagi tarmoqlardan sug'orish uchun suvni o'zboshimchalik bilan olish, suvni o'zboshimchalik bilan olish

Date: 3rd November-2025

uchun turli qurilmalar qurish, limitda belgilanganidan ortiqcha suv olish va boshqa qoidabuzarliklarda ifodalanishi mumkin [4].

Amaldagi moddalarda “tabiatga zarar yetkazish” tushunchasi noaniq va subyektiv baholanishi mumkin. Shuning uchun har bir ekologik jinoyat turi uchun obyektiv tomon (harakat, oqibat, sababiy bog‘liqlik)ni aniq mezonlar bilan belgilash taklifi beriladi. Bu quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- “suvni ifloslantirish” — zararli moddalar miqdori bo‘yicha;
- “o‘rmonni yo‘qotish” — gektar miqdori bilan;
- “hayvonot dunyosiga zarar” — yo‘qotilgan turlar soni bo‘yicha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ekologiya huquqi: darslik/ Olim Narzullayev, Asqar Nigmatov. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 480 b.
2. Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida qonun, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.11.2024-y., 03/24/995/0908-son
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son
4. Ekologik-huquqiy javobgarlik: darslik/ Narzullayev Olim Xolmamatovich, Nurmatov Mirg‘olib Mirzayevich. – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 224 b.
5. www.lex.uz